E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

IBN HALDUNNING “MUQADDIMA” ASARIDA AMIR TEMUR SIYMOSINING YORITILISHI

Dilorom Djuraboeva

Oriental universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolda dunyo tarixidagi eng mashxur sotsiolog va tarixchi olimlardan biri Ibn Haldunning hayoti, hamda uning “Muqaddima” asarida Amir Temur bilan bog‘liq voqealar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

Ibn Haldun, “Muqaddima” asari, Tunis, Qur’oni Karim, Andalus.

Ibn Haldun Islom madaniyati pasayayotgan, inqirozga yu tutayotgan, bunga qarama qarshi o‘laroq Yevropa madaniyati jonlanib, kuchayib borayotgan hijriy VIII, milodiy XIV asrda yashab o‘tdi. Islom osmonida tafakkur va ilm bilan porlagan eng ohirgi yulduz Ibn Haldu bo‘ldi. Undan keyin qanchadan-qancha olimlar, fikr egalari yetishib chiqqan bo‘lsada hech birisi Ibn Haldunchalik ilm osmonida porlay olmadi.

Ibn Haldun yashagan paytda Andalusning katta qismi xristiyanlar qo‘liga o‘tib ketgandi. Musulmonlar qo‘lida qolgan ozgina hududlarda ham o‘zaro fitna va nizolar avj olib yotardi, urushlar va jangler tez-tez sodir bo‘lib turardi. Bu paytga kelib Muvahhidlar davlati yiqilgan, Marokashda Meriniylar, Tunisda Hafsilar, Jazoyirda Abduvadoo‘g‘ullari sulolalari hokimiyat tepasiga kelishgan edi[1:135].

Ibn Haldun zamonida musulmonlar Misr, Suriya, Hijoz, Iroq, Iron, Onado‘li, Xuroson va Hindiston kabi qudratli mamlakatlar mavjud edi. Budavrda Misrda Mamlukiylar, Onado‘lida Saljuqiy beyliklari va Usmonlilar hukm surishardi. XIV asrning ohirida Amir Temur butun islom dunyosiga hokim o‘laroq jahon tarixidagi eng buyuk va eng qudratli davlardan birini bunyod etdi. Ibn Haldun yashagan asrdagi Islom dunyosining qisqacha umumiy manzarasi shunday edi.

Ibn Haldun nomi bilan mashxur bo‘lgan Abdurahmon bin Muhammad xijriy 732-yil ramazon oyining 27-mayida, milodiy 1332-yilda Tunisda tavallud topgan. Ibn Haldunning Misrdagi qabri nomalum bo‘lgani holda u yashagan Tunisdagi uy ma’lumdir. Bu uy Tunisning eski mavzelaridan birida joylashgan bo‘lib, bu mavze “Turbatul Boy” deb atalib kelingan. Bu uy keyingi yillarda Madrasatul Idoratil-Ulyayi hisoblanib uning kirish eshigiga lavha osishib bu yer Ibn Haldun tug‘ilgan uy sifatida e’tirof etib kelingan[2:56].

Ibn Haldun turli hil ilmlar fikr va tafakkur yuritgan, adabiyot va san’at bilan mashg‘ul bo‘lgan olim edi. “Muqaddima” ensiklopedik harakterga ega bo‘lgan bir asar bo‘lganidan Ibn Haldun bu asarida har tuli fanlar haqida ma’lumotlar berib, madaniy masalalarning katta qismini bayon etib, ijtimoiy-madaniy muassalarni tadqiq va tahlil etgan.

“Muqadimma” asarida quyidagi islomiy ilmlar haqida to‘htalib o‘tilgan: 1. Ulumul Qur’on-qiroat, tafsir, 2. Hadis. 3. Fiqh, faroiz, usulul fiqh, hilof va jadal. 4. Kalom va aqoid. 5. Tasavvuf.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Ibn Haldun hali ancha kichik yoshda ekan sarf, naxv, badiiyat, bayon, ma'no va balog'at fanlaridan dars olgan, arab adabiyoti bilan oshno tutingandi. Bu soxadagi uning ustozlari Muhammad ibn Arabiy Hasoiriy, Ahmad ibn Kassor, Muhammad ibn Bahr, Muhammad ibn Jobir Kaysiy Muhammad ibn Abdulmuhaymin, Abdulloh ibn Yusuf Molikiy, Ahmad ibn Shuayb, Ibrohim Abiliy, Ibn Burral va Zavoviylar edi. Uning bu soxada o'qigan kitoblari orasida Ibn Molikning "at-Tas'hil", Hasoiriyning "at-Tas'hil"ga yozgan sharxi, shuningdek bu olimning "Muallaqot" asari, A'lamning "Kitabul hamasot", Abu Tammomning "Devon", Mutanabbining va Og'oniyning ba'zi she'rlari mavjud bo'lgan.
Ibn Haldun "Muqaddima"ning VI bobida til va adabiyot mavzusi haqida to'htalib, bunga oid mulohazalarini keltirib o'tgan. Jumladan, olim bu bobda lug'at, avomning tili, badaviylarning lahjasi, e'rob masalasi, bir millatning avomiy va lahjalarining qo'llanilishi, arab bo'lmaganlardan arab adabiyotshunosining chiqmasligi va boshqa turli hil mavzularda olg'a surgan qarashlari uning tilshunoslik masalasida mutaxassis ekanligidan davololat bermoqda.

Ayniqsa, Ibn Haldunning "Muqaddima" asaridagi Movarounnahr hukmdori Amir Temur bilan bog'liq sahifalari e'tiborga loyiqdir.

1400-yilning oktabr oyida Amir Temur Suriyaga yurish qilib Halab shahrini egallagani haqida Misrga xabarlar kela boshladi. Bu xabarlar Misrda qo'rquv va daxshat uyg'otdi. U paytlarda Shom Vali Sulton Nosir Farosnin gqo'l ostida edi. U Temurning bosib kelayotganini eshitishi bilan darhol jangga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Sulton yoniga olgan mutasavvuf, faqih va boshqa olimlarning ichida Ibn Haldun ham bor edi. Ibn Haldun sultonning qanday safarga chiqayotganini bilib, unga safarga chiqmaslikka izn so'rasa-da sulton bunga rozilik bermaydi.

1400-yilning noyabr oyida Misr qo'shini Shomga yetib bordi. Ibn Haldun faqih, qozi va so'fiylar bilan birgalikda Madrasatul Odiliyaga o'rnashadi[3:315]. Misr qo'shini ila Temurning askarlari Shom yaqinida jangga kirishadi. Misrliklar yengilib ikki tomonlama sulh tuzish ishlari olib boriladi. Biroq Misr qo'shinida ixtilof chiqib bazi qo'mondonlar qarorgohni tashlab Misrga qaytib ketadi. Sulton bu amirlar Misrga qaytib borgach darhol o'zini taxtdan olib tashlab o'rniga Lochin deb atalgan qarindoshini taxtga chiqarishini bilib o'zi ham darhol Misrga qarab yo'lga chiqadi. Sulton ketganidan keyin shaharning Amir Temurga taslim bo'lishi borasida bu yerda qolgan qo'mondon va amirlar o'rtasida ixtiloflar boshlanadi. Ibn Haldun shaharning egallanishini va bu yerdagilar qatl etilishini anglab, faqih va qozilarni Odiliya madrasasiga yig'ib ularga Amir Temurdan omonlik tilash kerakligini aytadi. Qal'a qo'mondoni dastlab shaharni taslim bo'lishiga qarshi bo'lib, keyinchalik uning o'zi ham qal'ani tashlab chiqib ketadi. Qal'ada qolgan insonlar (Ibn Haldun ham) Temur bilan ko'rishmoqchi ekanligini bildirishdi. Ularning bu takliflarini Temurning qo'mondoni Shoh Malik unga yetkazadi. Amir Temur ularni qabul qilishga rozi bo'ladi.

Voqeaning davomini Ibn Haldun quyidagicha bayon qiladi: "Temurning qarorgohiga bordik. Bizni uning chodiriga yaqin bo'lgan boshqa bir chodirga joylashtirdilar. Mag'ribning Molikiy qozisi sifatida meni unga tanishtirdilar. Keyin u meni chodiriga chaqirdi, ichkari kirdim. Temur tirsagiga tayangan holda o'tirar edi. Chodirining o'ng tomonida o'tirgan bir to'p amirlarning yuzi mo'g'ullarning yuziga o'xshab ketardi. Ichkariga kirgach salom berdim, boshini qimirlatib alik oldi, qo'lini uzatdi, qo'lini o'pdim. O'tirishga ishorat berdi. Taklif qilgan joyiga o'tirdim. So'ngra yaqin

odamlaridan bo‘lgan Xorazm faqihlaridan Abduljabbor Ibn No‘monni tarjimonlik qilishi uchun chaqirtirdi”[4:255].

Amir Temur Ibn Haldunning hayoti, oilasi, shimoliy Afrika va Misrning siyosiy va jug‘rofiy vaziyatlariga oid savollar beradi. Ibn Haldun bu savollarga javob beradi. Amir Temur Ibn Haldunning yuqoridagi savollarga javobini qog‘ozga yozib berishini istadi. Ibn Haldun ham yuqoridagi mintaqalarning siyosiy va jo‘g‘rofiy holati haqida kichkina bir risola shaklida ma’lumotlarni yozib uni Temurga taqdim etadi.

Ibn Haldun o‘zining ilmini namoyish etib buni Temurga ko‘rsatish orqali undan kelgusida foydalanishni ko‘zlaydi. Jumladan u Amir Temurga hitob etib: “Ey hukmdor Alloh yordamchingiz bo‘lsin, qirq uch yildirki sizni ko‘rish orzusida edim” deydi. Buning javobiga tarjimon Abduljabbor “Sabab ne?” deb so‘raydi. Ibn Haldun davom etib: “Birinchisi shuki, Siz olamning sultoni, dunyoning podshohisiz. Hazrati Odamdan to shu kunimizgacha Siz kabi hukmdorning kelishiga ishonmagan edim. Men kabi oddiy inson bu masalada ojizman. Chunki men bir ilm odamiman. Mening siz bilan ko‘rishishga orzu qilishimga sabab shudir. Qolaversa, Munajjimlar muazzam bir hukmdorning dunyoga kelishini va hukmdorlik qilishini Mag‘ribda eshitgan edim”[4:255] deb javob beradi.

Ibn Haldun Temur bilan ko‘rishmasidan biroz oldinroq do‘stlarining maslahati bilan unga hadya etish uchun bir Mushafi Sharif, maxsus tikilgan bitta joynamoz, Burda qasidasining bir nusxasi va to‘rt qop holva olib hukmdorga taqdim etadi. Ibn Haldun: “Temur kitobning Qur’on ekanligini bilgach uni boshiga qo‘ydi. Qasidayi Burda nima ekanligini so‘radi. Qasida va uning shoiri haqida Temurga so‘zlab berdim. Keyin joynamozni, so‘ngra holvani taqdim etdim. Pulini berishni istadi lekin olmadim” deb yozadi.

Ibn Haldun Mag‘rib sultoniga yozgan maktubda Amir Temur haqida to‘xtalarkan jumladan shunday deydi: “Temur hukmdorlarning buyuklaridan va firavnlaridandir. Ba’zilar uni olim, ba’zilar Ahli Baytning ustunligini aytib Rofizilig‘iga nisbat beradilar. Ammo unda bularning birortasi ham yo‘q. Shunday bo‘lsa-da u juda aqlli, fazilatli, bilgan va bilmaganlari xususida o‘jarlik bilan harakat qiladigan kishidir. Yoshi oltmishlar bilan yetmishlarning o‘rtasida. Menga so‘ylashiga qaraganda oyog‘i bir jangda tekkan o‘qning ta’sirida nogiron bo‘lmishdir. Yaqin masofalarga o‘zi yura oladi lekin uzoq masafolarga yuradigan bo‘lsa, odamlari qo‘ltig‘iga kiradi”[5:512].

Bazi manbalarda Ibn Haldunning Temurning Misrga yurish qilish fikridan voz kechishga undagani, buning o‘rniga Onado‘liga yurish qilish lozimligi haqida maslahat bergani aytiladi. Shuningdek manbalarda Amir Temur Ibn Haldunni Samarqandga keltirishni istagani lekin, Ibn Haldun uning qo‘lidan qutilishni maqsad qilib rozi bo‘lmagani qayd etilgan. Bir necha hafta o‘tgach Ibn Haldun Misrga ketish uchun Amir Temurdan ruhsat oladi. Shunday qilib u 1400-yilda Qohiraga yetib keldi.

Ibn Haldun 1406-yilning 16-mart kuni qamariy sana ila 76, shamsiy sana ila 74 yoshida vafot etdi. Shunday qilib yillar mobaynida insonlarga ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida darslar bergan va o‘zining bebaho “Muqaddima” asarini bashariyatga meros sifatida qoldirib ketgan olimning hayoti poyoniga yetdi. Ibn Haldun “Makrabatul so‘fiyya” nomli qabristonga dafn etildi. Bu qabriston Solihiya honaqohining so‘fiylari tomonidan XV asrning ohirlarida qurilgan edi. Bu yerda juda ko‘plab so‘fiylarning qabrlari joy olgani uchun shu nom bilan tanilgan, ushbu qabristonda boshqa

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

davlat ayonlarining ham ko‘plab qabrlari joylashgandi. Barbar takyasida yashagan va bu yerning shayhi bo‘lgan bo‘lgan Ibn Haldun shu mozorga dafn etilishga loyiq ko‘rildi. Biroq, ming afsuski Ibn Haldun tug‘ilgan uy va u ta’lim olgan madrasa yaxshi saqlanib qolgani holda, uning Misrdagi uyi va dafn etilgan qabri bugungi kungacha saqlanib qolmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI

1. Sa’tiy al-Husriy. Dirosat an-Muqaddimati ibn Haldun. Bayrut.: 1967. –S. 105
2. Muhsin Mahdi. Ibn Khaldûn’s Philosophy of History, London 1957. – P. 56.
3. Aziz al-Azmeh, Ibn Khaldūn in Modern Scholarship, London.: 1981. –P. 229-318
4. Ibn Haldun. Mukaddime. Istanbul.: 2020. Dergah yayinleri. – S. 455.
5. W. J. Fischel, “Selected Bibliography of Ibn Khaldun”, The Muqaddima an Introduction to History (trc. F. Rosenthal), Princeton.:1958. –P. 485-512

WORDLY
KNOWLEDGE